SO‘FIZODANING XORAZM JADID MAKTABIDAGI PEDAGOGIK MAHORATI VA IJODIY FAOLIYATI

Sayyora Samandarova,
Urganch innovatsiya universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19815154

Annotatsiya. *Ushbu maqolada So‘fizodaning Xorazm jadid maktabidagi uch yillik pedagoglik faoliyati, o‘quvchilarga bergan yuksak ta’lim-tarbiyasi tahlil etilgan. Shuningdek, shoir sifatida yaratgan ijod namunalari, ulardagi g‘oya va maqsadlar ham tadqiq qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Namangan, Xorazm, xonlik, maktab, jadidchilik harakati, darslik, ta’lim, adabiyot, sovet davri, xalq shoiri, qatag‘on davr qurboni.*

Аннотация. *В данной статье анализируется трехлетняя педагогическая деятельность Суфизода в Хорезмской джадидской школе, а также его высокое образование и воспитание учащихся. Также исследуются образцы творчества, созданные поэтом, их идеи и цели.*

Ключевые слова: *Наманган, Хорезм, ханство, школа, джадидское движение, учебник, образование, литература, советский период, народный поэт, жертва репрессий.*

Abstract. *This article analyzes Sufizoda's three-year pedagogical career at the Khorezm Jadid school and the high level of education and upbringing he provided to the students. Also, the examples of creativity created as a poet, the ideas and goals in them are studied.*

Keywords: *Namangan, Khorezm, khanate, school, Jadid movement, textbook, education, literature, Soviet period, people's poet, victim of repression.*

Kirish. Barcha turkiy musulmon o‘lkalarda bo‘lgani singari jadidchilik harakati Xiva xonligida dastlabki davrda-ya’ni 19 asr oxirlarida, xususan 1898 yilda ta’lim sohasidan boshlandi. Faqatgina 20 asr boshlaridangina jadidchilik Xorazmda ijtimoiy-siyosiy jarayonga, tarixdagi burilish davrida davlatchilikga ta’sir qiluvchi siyosiy kuchga aylandi. Tabiiyki bu jarayon nafaqat O‘rta Osiyo, balki dunyo davlatlaridagi vaziyat bilan ham bog‘liq edi.

Ta’limdagi jarayonlar, xususan jadid maktablarining son va sifat jihatdan boshqa hududlarga qaraganda rivoj topishi, maktablar uchun maxsus binolar qurilishi, darsliklar, o‘quv jihozlari bilan ta’minlanishi ham aynan hukmdorlar, amaldorlar va boy mulkdorlarning qo‘llab quvvatlashi bilan bog‘liq edi. E’tiborli jihati shundaki, Xorazmda jadid maktablarini tashkil etish, ushbu maktablarga Qozon, Orenburg, Chust, Toshkent shaharlaridan o‘qituvchilarni taklif qilish, hattoki “Tarjimon” gazetasiga obuna bo‘lish singari ezgu ishlarga bevosita hukmdor Feruzxon (1844-1910), so‘ngra Asfandiyorxon (1872-1918)lar xayrixohlik bilan qarashgan.

Tabiiyki, hukmdorlarning bunday xayrihohligi esa Qozikalon Salimoxun, Bobooxun Salimov, Husaynbek Muhammadmurodov, Mamat Mahram, Islomxo‘ja

singari ko‘plab amaldorlarning ham siyratidagi taraqqiyparvarligini yuzaga chiqardi. Natijada ular Xorazmning turli hududlarida jadid maktablari tashkil etib, taraqqiyparvar pedagoglarni ishga taklif etibgina qolmay, o‘qish-o‘qitish ishlarini ham tahlil qilib borishgan.

Xorazm jadidchilik harakatining farqli tomonlaridan ham biri, aynan jadid maktablarini hukmdor, amaldorlarning qo‘llab quvvatlashidir. Shu boisdan ham, boshqa hududda ta’qibga, tazyiqqa uchragan pedagoglar najotni Xorazmdan deya bilib, qadim vohaga intilganlar. Ana shunday jadid pedagogi va shoir So‘fizoda edi.

Adabiyotlar tahlili. Muhammadsharif So‘fizodaning jadid ma’rifatparvari, shoir sifatida yaratgan yaratgan asarlari va pedagoglik faoliyati haqida istiqlol davrida Ahmad Muhammad Ubayd, Lutfulla Olimiy, M.Solihov, M.Shayxzoda, T.Rasulov, Y.Shamsharov, J.Abdullaxonov, B.Qosimov, I.Abdullayev, Sh.G‘afforov, A.Rahimov, A.Xalilbekov, N.Karimov, B.Nazarov, H.Orifiy, M.In’om, M.Qo‘chqorova, S.Samandar, U.Bekmuhammad singari olim va ijodkorlarning maqola va monografiyalari chop etilgan. Ammo shu paytgacha So‘fizodaning Xorazmdagi uch yillik pedagoglik faoliyati, qanday sabablarga ko‘ra Chustdan Xiva xonligining Qo‘ng‘irot shahriga kelgani, pedagoglik davridagi Xorazmdagi boshqa jadid maktablari bilan aloqasi, Qo‘ng‘irotda yaratgan asarlari, maktabdagi o‘qitish uslubi, qanday darslik, qo‘llanmalardan foydalangani bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Ushbu maqolada yuqoridagi tadqiqotlar, risolalar, maqolalardagi faktlar, fikrlar taqqoslab chiqildi va shular asosida xolis va haqqoniylik tamoyillari asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-tahliliy, qiyosiy va biografik yondashuvlar uyg‘unligiga asoslanadi. Maqolada arxiv manbalari, ilmiy adabiyotlar hamda jadid matbuoti materiallari tahlil qilinib, So‘fizodaning pedagogik faoliyati va ijodiy merosi o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Shuningdek, uning Xorazm jadid maktablaridagi faoliyati hududiy va davriy kontekstda tizimli ravishda baholandi.

Tahlillar va natijalar. Muhammadsharif So‘fizoda – O‘zbek jadid adabiyotining namoyandalaridan biri bo‘lib, tarixda vodiy hududlarida jadid maktablari tashkilotchisi, pedagog, iqtidorli ijodkor va afsuski sovetlar qatag‘oni qurboni bo‘lgan shaxs.

Xorazm tarixi, xususan jadidchilik harakati, jadid adabiyoti va pedagogikasida esa 1910–13-yillarda Qo‘ng‘irotda faoliyat ko‘rsatgan mahoratli pedagog, ijodkor sifatida qolgan.

Ma’lumki, Turkiston, Buxoro, Xorazmdagi jadid pedagoglari, pochta, telegraf, savdo karvonlari, qolaversa jadidlarning jamiyatlari orqali bir-birlari bilan darsliklar,

kitoblar almashishni, maktub tarzida fikrlashish, maslahatlashishni yo‘lga qo‘yishgan. Qolaversa “Tarjimon”, “Taraqqiy”, “Oyina” singari nashrlar jadidlarning sevimli nashrlari va axborot almashish vositasi ham bo‘lgan.

So‘fizoda ham garchi Chustda tug‘ilib, vodiy hududlarida pedagog, shoir sifatida tanilgan bo‘lsada, Xorazmdagi jadid maktablari pedagoglari bilan muntazam aloqada bo‘lib turgan. Bundan tashqari, “Tarjimon” gazetasini muntazam mutoalla qilish orqali, nafaqat dunyo davlatlari, Rossiya imperiyasidagi jarayonlar, jadid maktablaridagi holat, Xiva xoni Feruzxon, valiahd Asfandiyor va boshqa saroy amaldorlarining Xorazmda jadidlarni qo‘llab quvvatlayotgani, maktablar tashkil etayotganidan xabardor bo‘lib turgan.

Aynan So‘fizodaning 1910–1913-yillar oralig‘ida Xorazmning Qo‘ng‘irot bekligida jadid maktabida faoliyat ko‘rsatganidan kelib chiqib, nega aynan vodiydan chekka hududga kelib pedagoglik qilgani, umuman olganda hayoti, ijodi, pedagoglik faoliyatiga to‘xtalib o‘tish joiz.

Ma’lumki, Muhammadsharif So‘fizoda o‘zbek demokratik va ma’rifatparvarlik davri adabiyoti an’analarini davom ettirgan, milliy uyg‘onishni yuzaga keltirgan jadid adibi va pedagogidir. Adibning tavallud topgan sanasi sovet davri va istiqlolning dastlabki yillarida 1869 yil deb ko‘rsatib kelingandi.

Buyuk Ahmad Muhammad Ubaydning izlanishlariga ko‘ra (“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1993, 23-iyul) So‘fizoda o‘z tarjimai holida: “Men 1880-yil 29-yanvar kunida Chust shahridagi ko‘nchigarlik jamoasida tug‘ilganman”, – deya ta’kidlaydi. Uning shaxsiy ishidagi savol varaqasida berilgan ma’lumot ham shuni tasdiqlaydi. Unda: “So‘fizoda 1880-yilda kambag‘al dehqon oilasida tug‘ilgan, ma’lumoti o‘rta, asosiy kasbi o‘qituvchilik, qilib turgan vazifasi va ishi shoirlik bo‘lib, oilasi 8 jondan iborat”, deb ko‘rsatilgan [1].

So‘fizodaning adabiyotga ixlosi bolaligidan boshlangan. U onasi Zaynab aya hohishiga ko‘ra, qo‘shnisi Manzura otindan xat-savod o‘rganib, an’anaviy maktabda ta’lim olgan. Ayniqsa, zukko va xushovoz Manzura otin aytgan ertak, doston va qo‘shiqlar yosh Muhammadsharifda adabiyotga havas uyg‘otgan. U Hofiz, Bedil, Alisher Navoiy, zamondoshlari bo‘lgan Muqimiy, Furqat kabi ijodkorlar asarlarini tahlil qilib, she’rlar yoza boshlagan. Toshkentda chiqadigan “Turkiston viloyatining gazeti”, shuningdek Qozon, Orenburg va Boqchasaroyda chiqadigan nashrlarni doimo mutoalla qilib borgan. Boku va Tiflisda chop etilgan ozar tilidagi asarlarni ham o‘qib, o‘zida ham shu singari asarlar yaratish hohishi paydo bo‘lgan.

“So‘fizoda 1893-1899-yillarda Qo‘qonda yashab, Muqimiy, Furqat singari zamondosh ma’rifatparvar ijodkorlar ta’sirida “Vahshiy” taxallusi bilan hajviy asarlar yaratadi. Uning ayniqsa, “Dakanang”, “Bedanang”, “Ayting bu so‘zimni”, “O‘pay”,

“G‘ubor dardu olam” kabi hajviy va lirik g‘azallari e’tiborga loyiq va o‘z davrida xalq orasida shuhrat qozongan. Biroq, hali Muqimiy hajviyasi zarbidan qutulib ulgurmagan zamona hokimlari yosh Muhammadsharifning keskin tanqidiga qarshi hujum boshlaydilar. Oqibatda, u 1899 yili Qo‘qondan Chustga qaytib keladi. Jadid maktabi tashkil qilib pedagoglik faoliyatini davom etdiradi. Biroq hajvchiligi, pedagog sifatidagi taraqqiyparvarlik faoliyati uchun ikki yil o‘tgach, uni mutassib ruhoniy va amaldorlar dahriylikda ayblab, qatl etishga hukm chiqaradilar.

Professor Marhabo Qo‘chqorova tahlillariga ko‘ra” Behbudiy, Cho‘lpon, Hamza va boshqa jadid ma’rifatparvarlari singari So‘fizoda ham zamona johilliklarini, razolatga botgan millat ahvolini hech ayamasdan tanqid etadi. Xususan, uning fosh etuvchi satirik she’riyatida achchiq haqiqatlar dadil ochib tashlanadi. So‘fizodaning “Jon berib, erkinchilikni ishchilar oldi arang” misrasi bilan boshlanuvchi musaddasida Qo‘qon adabiy muhitining yetakchi shoirlari Muqimiy, Zavqiy, Furqatlarning o‘ziga xos satirik uslubi bo‘y ko‘rsatadi” [2].

Satiraga, yumor va hajv, tanqidga dosh berolmaydigan radikal, nafsga berilgan boylar So‘fizodaga tazyiq, ta’qibni kuchaytirib yuborishadi. Natijada So‘fizoda Chusdan, Farg‘ona vodiysidan muhojirlikka ketib, to 1914-yilgacha tug‘ilib voyaga yetgan hududidan ketishga majbur bo‘ladi. Xuddi shu yillar (1900-1914) So‘fizoda ijodining yangi bosqichini tashkil qiladi. U dastlab Bokuga borib, Jalil Qulizoda, Sobir Tohirzoda, Muhammad Hodiy kabi ozarboyjon adabiyotining taraqqiyparvar vakillari bilan tanishadi. So‘ng Arabiston, Hindiston va Usmoniylar mamlakatlarida bo‘lib, oddiy xalq hayoti bilan tanishadi” [3].

Muhojirlik davrining uch yili – 1910-1913-yillarda Xorazmda pedagoglik qiladi. So‘fizoda Namangandagi Ishoqjon Ibratning bosmaxonasida chop etilgan, shuningdek Bokuda nashr qilingan darslik, kitoblarni Xorazmga olib keladi va pedagoglik faoliyatida foydalanadi. Ana shu uch yil davomida Xorazmda ta’lim sohasi taraqqiyoti borasida samarali faoliyat olib boradi va mahoratli pedagog sifatida taniladi.

Shu o‘rinda jadid maktablaridagi jarayonlar, o‘qitish tizimi va qanday darslik, kitoblardan foydalanilganligiga ham to‘xtalish joiz.Negaki, So‘fizoda va boshqa jadid pedagoglarining faoliyati o‘sha davrdagi ta’lim sohasidagi jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan.

Professor Rustambek Shamsutdinov, tarix fanlari doktori Soyibjon Hoshimov, Nigoraxon Akbarovalar bilan hammualliflikda yaratgan “O‘rta Osiyodagi jadidchilik harakati tarixidan. Birinchi kitob” ida ta’lim maskanlaridagi o‘qitish tizimini ham tahlil qilishgan: “jadid maktablari, ya’ni yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy ta’lim-tarbiya hamda ilm o‘zaro uyg‘unlashtirilib, maktabxonadagi yakka o‘qitish

usulidan sinfda dars berish usuliga o‘tildi, sinflarda partalar, geografiya xaritalari, globus va boshqa ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘lgan. Ularda xat-savod bolalarning ona tilida tovush usuli-usuli savtiyada o‘rgatilgan. Jadid maktablarida Qur’oni karim, matematika, geografiya, ona tili, rus, arab tillari, ashula, hatto jismoniy tarbiya o‘qitila boshlandi”.

Maktablar asosan 1-4-sinflardan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/1914 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1-bosqichi tahziriy (boshlang‘ich) sinflar, 2-bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxonovning namuna maktabi, Abduqodir Shukuriyning Samarqanddagi va A.Ibodiyevning Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5-6 sinf) ham bo‘lgan. Jadid maktablari pullik va pulsiz edi. Har oyiga ota-onalar baholi qudrat, bir so‘mdan bir yarim so‘mgacha pul to‘lardi. 20 – 35% gacha kambag‘al va nochorlarning bolalari tekin o‘qitilib, o‘quv qurollari bilan ham ta’minlangan. O‘ziga to‘q oilalar esa o‘z hohishi bilan uch so‘mdan va undan ham ko‘p pul bergan. Bundan tashqari, jadidlar shaxsiy jamg‘armalari va ular tashkil etgan xayriya jamiyatlari ham jadid maktablarini mablag‘ bilan ta’minlab turgan. Nizom, dastur va darsliklarga asoslandi. Tarixda birinchi bo‘lib jadidlar o‘quvchilarga kundalik, chorak va yillik baholar qo‘yishni joriy etdilar. Maktab ochgan jadidlar dastur, qo‘llanma va darsliklarni ham o‘zlari yaratdilar” [4].

Shu tarzda ta’limdagi raqobat maydoniga, ya’ni bu paytgacha Turkiston, Buxoro, Xorazmda ham eski maktab deya ataladigan an’anaviy ta’lim tizimi, rus-tuzem maktabi mavjud edi. Ana shunday vaziyatda ta’limdagi raqobat muhitiga kirib kelgan jadidlarning o‘qitish tizimi qisqa vaqt ichida aholining e’tibori, e’tirofini topdi.

“Natijada, jadid maktablari, jadidchilik g‘oyalari ta’sirida har bir hududning xuddi Gaspraliga ixlos bilan qaragan, ergashgan o‘z murabbiylari yuzaga kela boshladi. Shuningdek ular tomonidan Gaspraliniki singari darsliklar ham yaratila boshlandi. Bunga misol sifatida “Ustozi avval”(Saidrasul Aziziy, 1901-yil), “Adibi avval” (Munavvarqori, 1907-yil), “Birinchi muallim” (Abdulla Avloniy, 1910-yil) kabi darsliklarni misol qilish mumkin. Birgina Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” darsligiga talab ko‘p bo‘lganidan 1917-yilgacha 17 marotaba qayta-qayta nashr etilgani, aholida, o‘quvchilarda ehtiyoj katta bo‘lganini ko‘rsatadi.

Shu singari Behbudiyning “Risolai asbobi savod”(1904-yil), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905-yil), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905-yil), “Kitobat ul-atfol” (1908-yil), “Amaliyoti islom”(1908-yil), “Tarixi islom” (1909-yil) kitoblari, Ishoqxon Ibratning “Lug‘ati sittati alsina”, “Jome’ ul-xutut”, Munavvar Qorining

“Adibus-soniy”, “Usuli hisob”, “Havoyiji diniya”, “Tajvid”, “Tarixi qavmi turk”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya”, “O‘zbekcha til saboqlig‘i” ham jadid maktablari uchun eng muhim darsliklar edi” [5].

Aynan shu va boshqa darsliklar Xorazm jadid maktablari uchun ham muhim qo‘llanma vazifasini bajarardi. Tabiiyki, vodiydadagi pedagoglik faoliyatida muhim pedagogik tajriba orttirgan, qolaversa Bokudagi yangi usul maktablari tizimi bilan ham tanishib, taqqoslash, yangiliklarni tadbiq etish imkoniyatiga ega bo‘lgan, shuningdek sharq davlatlarida bo‘lib dunyoqarashi yanada kengaygan, dunyodagi jarayonlardan xabardor So‘fizodaning Xorazmda faoliyatini boshlashi, voha peadogikasi, ta’lim jarayoni uchun quvonchli voqelik bo‘lgandi.

Ma’lumki, XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda Xiva xonligida garchi maktablar, madrasalar ko‘pchilikni tashkil qilsada, ularni umumlashtirib turuvchi, pedagoglarni yangi darslik, o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlash, malaka oshirish, umuman ta’lim sohasidagi jarayonlarni boshqarib boruvchi jamiyatlar faoliyat ko‘rsatmasdi.

“Tarjimon” gazetasidagi ma’lumotga ko‘ra, 1907-yilda Xivada jadid maktablarini ko‘paytirish, o‘quv jihozlari, adabiyotlari bilan ta’minlash, ulardagi ta’lim sifatini nazorat qilish uchun Ramazon Muhammad Karimzoda maktablar noziri qilib tayinlangandi. Natijada talab va taklif ortgani bois Gurlan, Xonqa, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot shaharlarida ham jadid maktablari tashkil etiladi va bu boradagi faoliyatning keng ommalashishida Ramazon Karimzodaning o‘rni katta bo‘lgandi.

Aynan So‘fizodaning Xorazmga kelib pedagoglik faoliyatini boshlashida Ramazon Karimzodaning o‘rni katta bo‘lgan. Karimzoda So‘fizodaga poytaxt Xivadan uzoqdagi, ammo Orol dengizi, Amudaryoga yaqin, ya’ni iqlimi vodiynikiga mos Qo‘ng‘irotdagi maktabda faoliyat ko‘rsatishni taklif qiladi. Shu tariqa So‘fizodaning uch yillik pedagoglik faoliyati Qo‘ng‘irot shahrida davom etadi. Tarixdan ma’lumki, Qo‘ng‘irot savdo, iqtisod rivojlangan, tabiati xuddi vodiyniki singari bahavo hudud sifatida ham mashhur edi.Bu vaqtda faqat So‘fizodagina emas, Toshkent, Qozon, Orenburglik yana ko‘plab pedagoglar Xorazmda faoliyat olib borishardi.

Orenburglik Ablurahmon afandi, Qozonlik Abdulla Salim, Maryam Agisheva, Husayin Qo‘shayev, Komila Qo‘shayeva, David Bakirov, Muxtor Bakirov, Ramazon Saydashev, Toshkentlik Husayin Ibrohimov va boshqalar garchi boshqa hududdan kelgan bo‘lishsada, Xorazm ta’lim taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan pedagoglar bo‘lishgan.

Ana shu safda Chustlik Muhammadsharif So‘fizoda ham bo‘lib, yuqoridagi va boshqa pedagoglardan farqli tomoni ijodkor sifatida asarlari bilan mashhurligi ham

edi. So‘fizoda shoirligi bois, Xorazmda Ramazon Saydashev, G‘ofur Usmoniy singari “Tarjimon” gazetasida maqolalar nashr etdirib obro‘-e’tibor qozongan jadid jurnalistlar bilan maslakdoshlikda faoliyat olib bordi.

Shu boisdan faqat Qo‘ng‘irot shahridagi jadid maktabida muallimlik qilish bilan birga, ma’rifatparvarlik ruhidagi she’rlarini yozib, Boku va Orenburgda chiqadigan gazeta va jurnallarda nashr etdiradi. Uning Xorazmda yashagan yillarda yaratgan she’rlari orasida ayniqsa, “O‘zbek xonimiga”, “Xonimlar isminda”, “Vatan”, “Muslimalar” asarlari diqqatga sazovordir.

So‘fizoda Xorazmga kelgan 1910-yilda Xiva xoni , ma’rifatparvar Feruzxon xasta edi va shu bois u bilan uchrashiga muvaffaq bo‘lmaydi. Ko‘p o‘tmay esa Feruzxon vafot etadi. Taxtga esa 1910-yil avgustida xuddi otasi singari shoir, jadid maktablari, pedagoglarini qo‘llab quvvatlayotgan Asfandiyorxon chiqadi. Aynan undan umidvor bo‘lgani tufayli So‘fizoda Asfandiyorning taxtga chiqishi munosabati bilan she’r yozgan va bu bag‘ishlov “Sho‘ro” jurnalning 1911-yil 12-sonida nashr qilingan. Tabiiyki, Qo‘ng‘irot shahridagi jadid maktabi o‘qituvchisi So‘fizoda Asfandiyorxonni taraqqiyparvar bo‘lishga undab, unga katta ixlos qo‘yganini she’rida ifodalab o‘tgan. Shu bilan birga xonlikdagi real vaziyatni ham ifodalab beradi:

Vordir umidimiz kena xoqon izzu joh
Etmaz deyub raiya huquqini xoki roh,
Zero, bu kun nizomi, o‘lub askaru sipoh,
Kiydi libos askariy va cherkasiy kuloh,
Asfandiyorxon abulnasr va alzafar
Xorazma verdi ravnaq, adli-la zebu far.

Ehson edub prinslara harji soliya,
Qozilara muvojib va tan xoh voliya,
Farmon dog‘nitdi so‘ngra umum aholiya,
Rishvat yasoq, maosh verar jaybi moliya,
Asfandiyorxon abulnasr va alzafar
Xorazma verdi ravnaq, adli-la zebu far.

Tanzim etildi dohiliy ishlar idorasi,
O‘lmoqdadir huquq milal istishorasi,
Duz chiqsa gar ziyolilarga istixorasi,
Fath makotibingga o‘lur balki chorasi,
Asfandiyorxon abulnasr va alzafar
Xorazma verdi ravnaq, adli-la zebu far.

Vordur garchi muhtasib shar’ o‘lub rais,
Ma’mur o‘lundi o‘lsada davriya va polis,
Axlotdan so‘qoqlari etmak uchun nafas,
Har bir sabil omada vor bir nafar kaniz,
Asfandiyorxon abulnasr va alzafar
Xorazma verdi ravnaq, adli-la zebu far.

Subhi saodat madaniyat yavosh-yavosh,
Vahshat qaronligi dog‘idub o‘ldi lam’a posh,
Adli-la o‘lsa shohi jahon o‘ylakim quyosh,
Qonuna qarshu kim edajak fitna va talosh,
Asfandiyorxon abulnasr va alzafar
Xorazma verdi ravnaq, adli-la zebu far [6].

So‘fizodaning Qo‘ng‘irotdagi pedagoglik faoliyati bilan birga, ijodi davomida Asfandiyorga bag‘ishlov she’ridan boshqa yana “O‘zbek xonimiga”, “Xonimlar isminda”, “Vatan”, “Muslimalar” asarlari yaratgani tadqiqotchilarga ma’lum. Agarki izlanishlar olib borilsa, jadid pedagogi va shoirining yana shu singari boshqa asarlari ham adabiyot ixlosmandlariga tuhfa qilingan bo‘lardi.

Ma’lumki, Ismoil Gasprali dunyo davlatlari, xususan Rossiya imperiyasi, jumladan Xorazmdagi vaziyatdan xabardor shaxs edi. Ayniqsa u Xorazmda jadidlar ko‘payotgani, ularni bevosita hukmdor, valiahd va Islomxo‘ja singari taraqqiyparvarlar qo‘llab quvvatlayotganini e’tirof etgan holda,”Tarjimon” gazetasining 1909-yilgi 40-sonida “maktablarning ochilishi, ko‘payishi lozim. Boqchasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaga endi to‘g‘ri kelmaydi, yarashmaydi. Endi Xivaning o‘zidan muallimlar yetishtirmoq kerak va Xivada chop etiladigan alifbolarni yaratmoq kerak. Bunda ham hech bir kimsa zarar ko‘rmaydi “deya strategik vazifani qo‘yadi” [7].

So‘fizoda “Tarjimon”gazetasidagi bu maqolani o‘qigan va uch yillik faoliyati davomida shogirdlar tayyorlab, ulardan izdosh pedagoglar yetishtirishga e’tibor qaratadi.

Tadqiqotchi M.U.Qayumov tahlillariga ko‘ra, “yangi usul maktablari nisbatan qisqa vaqtlarda o‘qish va yozishga o‘rgatilishi bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb etardi. Xiva xalqining dunyoviy bilimlarni egallashga qiziqishi ma’rifatparvarlarni targ‘ibotlari natijasida ham ortib boradi. Shu tariqa 1912-yilga kelib To‘rtko‘l, Shovot, Xo‘jaylida ham yangi usul maktablari ochiladi. Yangi usul maktablari sonining ortib borishi, ularning darslik va boshqa o‘quv qo‘llanmalari bilan

ta’minlash muammosini keltirib chiqardi. Darsliklar Istanbul, Qozon, Toshkentdan keltirilardi. Xiva jadidlari yangi usul maktablari ochish bilan birga, ular uchun darsliklar yaratish borasida ham katta ishlarni amalga oshirdilar. Yangi usul maktablarida mahalliy tilda o‘qish, yozish, arifmetika, geografiya, Xivaning qisqacha tarixi, chizmachilik, ilohiyot fanlaridan dars berilgan. Maktab xonalarining ichki tuzilishi eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik xarita va o‘qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o‘qishni davom etdirganlar. Yangi usul maktablari eski usul maktablaridan ta’limning sifati bilan ham ajralib turgan” [8].

So‘fizoda bir qancha shogirdlar tayyorlagan holda, tug‘ilib voyaga yetgan Chustga ketishga qaror qiladi. Negaki, oilasi, qarindosh urug‘lar diydori, qolaversa vaziyatning yaxshilana boshlashi uni 1913-yilda Xorazmdan ketishga undaydi. Shu tariqa u uch yillik pedagoglik va ijodiy faoliyati bilan Xorazm tarixi, ta’lim va adabiyotida muhim iz qoldirib, ona yurtiga qaytib keladi. Oldingidek Chustda jadid maktabi ochadi va unda muallimlik qiladi. Dunyoviy fanlarni yengil va yangi usulda o‘rgatishni davom etdiradi. Ayni xulli oldingidek chog‘da ayrim yangiliklarga to‘g‘anoq, radikal shariat peshvolarini, ma’rifatdan uzoq, boyllikka mukkasidan ketgan, faqirlarni mensimaydigan boy-amaldorlarni hajv qilib she’rlar yozadi. Tabiiyki, bunga chiday olmagan hukmron tabaqa vakillari, yana uni o‘ldirish payiga tushadilar. Buni sezgan shoir 1915-yili yana xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo‘ladi.

Bu safar davomida u dastlab Hindiston, so‘ngra Afg‘onistonda o‘qituvchilik faoliyatini davom etdiradi. Uning pedagogik, hayotiy tajribasi, qolaversa ijodkorligi, dunyoqarashi, taraqqiyparvarligi e’tiborga olinib, Afg‘oniston maorif vazirining o‘rinbosarligiga tayinlanadi. Ushbu vazifada ham yangi maktablar tashkil qilish, darsliklar, kitoblar bilan ta’minlashga intiladi. 1918-yilda Turkiston (Toshkent)ga kelib, afg‘on vakolatxonasida tilmoch bo‘lib ona vatanida ishlaydi. So‘fizoda o‘z Vataniga qaytib kelgach, yana oldingidek hajviy she’rlar yozishda davom etadi. U garchi tuzum va vaziyat o‘zgarib, sovet davri boshlangan bo‘lsada, munofiq rahbarlar va g‘animlar jamiyatda ko‘pligiga amin bo‘ladi. Shu boisdan hajv, satira, yumor ruhidagi asarlarida ularni fosh qilib asarlar yaratishda davom etadi. So‘fizodaning ijod namunalari o‘sha davrdagi “Qizil O‘zbekiston”, “Mushtum”, “Farg‘ona” kabi gazeta va jurnallarda tez-tez nashr etila boshlaydi.

“Xususan, 1925-yil 13-avgustda “Farg‘ona” gazetasida “Xushchaqchaq qalamlar” sarlavhasi ostida uning bir qator hajviy she’rlari chop etiladi. Uning “Haqiqatdan ko‘z yumganlar”, “Qalaysizlar?”, “Saylovga” kabi she’rlarida o‘sha

suronli yillar nafasi aks etdiriladi. 1934-yilda esa So‘fizoda “Bayram nashidalari” nomli dostonini yozgan” [9].

Xulosa. So‘fizodaga o‘zbek adabiyoti oldidagi xizmatlari uchun Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan bir kunda – 1926-yil 27-fevralda O‘zbekiston hukumati qarori bilan “O‘zbekiston xalq shoiri” degan yuksak unvon berilgan. Ya’ni, O‘zbekiston SSR da birinchi bo‘lib Xalq shoiri unvoni bilan taqdirlangan ijodkor aynan jadid pedagogi, adibi va Afg‘onistonda jamoat arbobi sifatida mashhur So‘fizoda edi.

Professor Marhabo Qo‘chqorova haqli ravishda ta’kidlaganidek, “jadid ma’rifatparvari So‘fizodaning “Saylovga”, “Vatan”, “Xonimlar isminda” kabi qator o‘nlab she’rlarida ijtimoiy g‘oyalar hamda jadidona badiiy talqinlar bo‘rtib turadi”.

Afsuski, sovet davrida qatag‘on siyosati avjga chiqqan 1937-yilda jadid shoiri, pedagogi “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olingan va otuvga hukm qilingan. So‘fizoda garchi qatag‘on qurboni bo‘lsada, uning hayoti, faoliyati istiqlol davriga kelib tadqiq etila boshlandi. Ammo shu tadqiqotlar bilan So‘fizoda hayoti, ijodi, pedagogikaga qo‘shgan hissasi, ayniqsa xorijga qilgan safarlari, Afg‘onistonda vazir o‘rinbosari sifatidagi faoliyati, shu bilan birga uch yillik Xorazm jadid maktabidagi pedagoglik, adabiy faoliyati umuman ilmiy tadqiq qilinmagan. Shu jihatdan olganda So‘fizodaning hayoti, ijodiy merosi, pedagoglik faoliyatini tadqiq qilish uchun tarix, filologiya, pedagogika sohasi mutaxassislari ma’nan qarzdordirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmad Muhammad Ubayd, “So‘fizoda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1993, 23-iyul.
2. M.Qo‘chqorova. “So‘fizoda she’riyatida ijtimoiy jadidona g‘oyalar talqini”, “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali, 2025 yil, 4-son, 71-72-betlar.
3. U.Bekmuhammad. “Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi”. “Milleniumus print” nashriyoti, Urganch, 2024-yil. 120-bet.
4. R.Shamsutdinov, S.Hoshimov, N.Akbarova. “O‘rta Osiyo jadidchilik harakati tarixidan. Birinchi kitob.”, Akademnashr” nashriyoti, Toshkent, 2024-yil.
5. S.Samandar, U.Bekmuhammad. “Xorazm jadid maktablari”, “Milleniumus print” nashriyoti, Urganch, 2025-yil, 65-bet.
6. So‘fizoda. “Asfandiyorxon”, “Sho‘ro” jurnali, 1911-yil, 12-son.
7. I.Gasprali. “Tarjimon” gazetasi, 1909-yil № 40.
8. M.U.Qayumov. X1X asr oxiri – XX asr boshlari Xiva xonligida ta’lim tizimi”,“Xorazm tarixi zamonaviy tadqiqotlarda”,“Navro‘z nashriyoti, Toshkent–Urganch, 2019 yil, 128-132-betlar.
9. S.Samandar, U.Bekmuhammad. “Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta’lim va adabiyot”,“Milleniumus print” nashriyoti. Urganch, 180-bet.